

ISSN 2181-7138

# МУАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМСЕНДИРИҮ



*Илимий-методикалық журнал*

---

**2023**

**1/1-сан**

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

Нөкис

*Шөлкемлестіріушілер:*

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ  
Нағмет АЙЫМБЕТОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ  
Тўлқин АЛЛАЁРОВ  
Умида БАҲАДИРОВА  
Фархад БАБАШЕВ  
Гулзода БОЙМУРОДОВА  
Маманазар ДЖУМАЕВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Гўлнара ЖУМАШЕВА  
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ  
Умида ИБРАГИМОВА  
Меруерт ПАЗЫЛОВА  
Асқарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Нуржан МАТЧАНОВ  
Шукурулло МАРДОНОВ  
Бахтиёр РАХИМОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Барлықбай ПРЕНОВ  
Қаххор ТУРСУНОВ  
Нурзода ТОШЕВА  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Ризамат ШОДИЕВ  
Зафар ЧОРШАНБИЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсор ЭРГАСHEBA  
Гавхар ЭЩАНОВА

---



## МАЗМУНЫ

### ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

<b>Nusratova H. Ch.</b> Ilmiy-omnabop matn va maqolalarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari	6
<b>Rustamova Z.</b> Dialektal korpus korpus lingvistikasining o'rganish ob'ekti sifatida	16
<b>Bakiyeva H. S.</b> Ona tili ta'limida o'quvchilarning matn ustida ishlash va matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish	21
<b>Рамазанова Р. А.</b> Технология критического мышления на уроках русского языка и литературы	27

### ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

<b>Ibadullayev Q. M.</b> O'rta talimga innovatsiyalarni joriy etishning mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati	34
<b>Xolmatova S. K.</b> Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar organizmining funksional holatini baholash uslubi	38
<b>Narimbaeva L. K.</b> Talabalarni intellektual-ijodiy qobiliyatini pivojlantirishning muhim xususiyatlari va komponentlari	44
<b>Rustamov L. X.</b> Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish jihatlari	51
<b>Tursaotov A. E.</b> Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari	55
<b>Mirzakarimova M. M.</b> O'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda cil texnologiyalari	60
<b>Jumanova F. U.</b> Dars- ta'limni tashkil etishning asosiy shakli	64
<b>Обидов А. Э., Джураев А. С.</b> “Адаптив таълим” ходисаси ва унинг ўзига хослиги	69
<b>Бозорова М. Қ.</b> Ўқувчи-ёшларнинг миллий-маънавий тарбияси ривожланишида этнопедагогик ғоялардан фойдаланиш	82
<b>Yarashev A. N.</b> Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik ta'limoti	86
<b>Otamurodova Sh.Q.</b> Diversifikatsiya tamoyilining talabalar kreativ potensialini yuzaga chiqarishdagi o'rni	92
<b>Mamanazarova N. K.</b> Xalq ta'limi tizimi boshqaruvida marketing xizmatlarini tashkil etish mexanizmi	100
<b>Egamberdiyeva M.</b> Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy rivojlanish kompetentsiyasini shakllantirish usullari	107
<b>Шерматов Б. Б.</b> Педагогические условия реализации модели социально-профессиональной адаптации курсантов	112
<b>Нигманов Б. Б.</b> Формирование здоровьесберегающей модели поведения студентов в период дистанционного обучения	117
<b>Мухамеджанов Ш. М.</b> Педагогические основы формирования ценностного отношения школьников к здоровому образу жизни	122
<b>Нурманова Н. Қ.</b> Применение интегративного модульного обучения как метода повышения качества образования	129

### МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

<b>Алтинов И. И.</b> Ўзбекистонлик тиббиёт ходимларининг иккинчи жаҳон уруши йилларида кўрсатган жасорати (Қорақалпоғистон фарзанди, ҳарбий врач, захирадаги подполковник, профессор, Заиров Қаям Сабирович хакида)	135
<b>Давлетбоев Д. Е.</b> Қорақалпоқ халқининг лочини	141



## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

### О‘РТА ТАЛИМГА INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING МАМЛАКАТИМИЗ IJTIMOIIY TARAQQIYOTIDAGI АНАМИЯТИ

*Ibadullayev Q. M.*

*CHDPU Maktabgacha ta’lim fakulteti dekani, fizika-matematika fanlari nomzodi*

**Таянч со‘злар:** о‘рта talim, fan, ishlanmalar, innovatsiya, innovatsion rivojlantirish, integratsiya, rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, texnika, texnologiya ta’lim tizimi, innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, ta’lim islohotlari.

**Ключевые слова:** среднее образование, наука, разработки, инновации, инновационное развитие, интеграция, развитие, социальное развитие, инженерия, технологическая система образования, инновационные подходы, педагогические технологии, образовательная реформа.

**Key words:** secondary education, science, developments, innovation, innovative development, integration, development, social development, engineering, technology education system, innovative approaches, pedagogical technologies, educational reform.

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillaridanoq ta’lim sohasiga davlat darajasida e’tibor qaratib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo‘nalishlarini belgilab berdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’limni tubdan isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan. Unda “Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi” - deb ko‘rsatilgan . O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasining to‘rtinchi - Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustivor yo‘nalishining “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” deb nomlangan bandida 2017-2021 fillarda “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” [2,] ko‘zda tutilganligini alohida ta’kidlash lozim. Bunday yuqori marralarga esa ta’lim jarayoniga ilg‘or, innovatsion yondashuvlarni jalb etmay turib erishib bo‘lmaydi. Darhaqiqat,



ilg'or pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jamiyatning barcha sohalariga innovatsiyalarni joriy etilishi ijtimoiy hayotning muhim harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etilishi esa, jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy takomilini ta'minlash, aholi turmush faravonligini oshirish, ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonida o'zining muhim o'rniga egadir. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday usullarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarda dars mazmunini teran anglash ko'nikmasini shakllantiradi. Ta'limning innovatsion metodlari o'quvchilarning ulkan ta'limiy kudratidan foydalanish va faollashtirish, o'quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi. Ta'limning interfaol metodlari ta'limda yangiliklar sirasiga kiradi. K. Angelevskiy fikricha, «... barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda... Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy... yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir... Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim». Innovatsiya ingliz tilidan olingan bo'lib, yangilik yaratish, yangilik kabi ma'noni anglatadi. Demak, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil qoidalar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol usulardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini takomillashtirish va innovatsion rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: – birinchidan, mamlakatda oliy tizim va ilmiy muassasalar ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib boriladigan asosiy maskandir; – ikkinchidan, O'rta talimda innovatsion g'oyalar yaratish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy va pedagogik kadrlar salohiyati mavjud;



– uchinchidan, xorijiy davlatlarning ta’lim tizimida innovatsiyalar bo’yicha tajribalarini keng o’rganish va mahalliy sharoitda joriy etish imkoniyati mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev: “Bu o’rinda, mening nazarimda, ikkita asosiy vazifani hal etish zarur: birinchi – ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg’or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talablariga muvofiq sezilarli ravishda mustahkamlash kerak. Bunda, albatta, davlatning ehtiyojlari va uning maqsadli vazifalari inobatga olinishi shart; ikkinchi – akademiklarni har taraflama qo‘llabquvvatlash, jumladan, moddiy rag‘batlantirish bo’yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish” deb ta’kidlagan .

Ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirish O‘zbekistonda yoshlarga har tomonlama shart-sharoitlar yaratilib berilayotganligi bilan chambarchas bog‘liqdir. O.Muhammadjonovning ta’kidlashicha, “Yosh avlodning har tomonlama barkamol rivojlanishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratish O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab yoshlarning manfaatlariga oid davlat siyosatining ustuvor yunalishi hisoblanadi. Zero, bu kelajakka yo‘naltirilgan sarmoya hisoblanadi” [4,28]. O‘rta talim o‘quv yurtlarini mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatida o‘rnini yuksaltirish yuzasidan qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Ularni faqatgina ta’lim dargohi emas, balki ilmiy g‘oyalarni ishlab chiqish, real hayotga yangi mahsulotlar, texnika va texnologiyalar barpo etuvchi muassasalar sifatida rivojlantirish, ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi olimlarning har tomonlama rag‘batlantirish, ularning mehnat natijalarini xalq xo‘jaligiga keng joriy etish borasida choratadbirlarni amalga oshirish lozim. “Mustaqil milliy ijtimoiy taraqqiyot yangi sifatii bosqichga o‘tib o‘tishini ta’minlashda moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlarini dialektik tarzda uyg‘unlashtirishning yana bir usulini innovatsiyalarni iqtisodiyot va ma’naviyat sohasiga joriy etish asosida ularni uyg‘un tarzda rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish tashkil etadi. Bu usul yoshlarning mehnat faoliyatini iqtisodiyot va ma’naviyat bilan uyg‘un tarzda tashkil etish asosida rivojlantirishning dialektik xususiyatlarini o‘zida ifodalagan vositalar orqali ish yuritadi” [4,64]. O‘rta talimda innovatsiyalarni joriy etish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilarda ongida yangicha tafakkurni shakllantirish, zamonaviy fikrlash tarzini oshirish, texnologik g‘oyalarni shakllantirish lozim. “Bugungi jamiyatni rivojlantirish uchun voqelikka yangicha rakursdan turib qarash, yangicha, ya’ni innovatsion yondashuv lozim bo‘ladi. Bu yangicha metodologiya, yangicha texnologiya, xullas innovatsion yondashuvdir. Innovatsion, ya’ni yangilikka asoslangan texnologiyalar, yangicha boshqaruv jarayonlarini joriy etish uchun yangicha tafakkurga tayanish lozim” [4, 12].



O'rta talimda o'quvchilarga fanlardan faqat bilim berish bilan birgalikda, dolzarb ilmiy-texnika muammolarni yechishga jalb etib, innovatsion jarayonlar ishtirokchisiga aylantirish lozim. Bu jarayonlarni tashkil etishda oliygohlarda ilmiy-innovatsion markazlar, tajriba-texnik va konstruktorlik bo'linmalar, texnoparklar, yuqori texnologik jihozlarga ega zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda yosh olimlar va iqtidorli o'quvchilarning ilmiy salohiyati, yangi g'oyalar va innovatsiyalarga ilmiy va amaliy ko'nikmalari oshadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsiyalarga oid tushunchalarni atroflicha o'rganish orqali kelgusida mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim yo'nalishlarda muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritish istiqbollari mavjud.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom vashaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak, -Toshkent, "O'zbekiston", 2017. –B.46.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 3-son.
4. O.Muhammadjonov. Konstitutsiya: xalq manfaatlarining huquqiy kafolati. –Toshkent, "Muharrir nashriyoti", 2017. –B.28

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolaada mamlakatda ta'lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirish jarayonida innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Umumiy o'rta talim maktablarida innovatsion g'oyalar yaratish va amaliyotga joriy etish bo'yicha nazariy g'oyalar ilgari surilgan. SHuningdek zamonaviy texnologiyalar va ularni ta'lim jarayoniga qo'llash masalalalari yoritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье освещены вопросы эффективного использования инновационных подходов в процессе реализации образовательных реформ в стране, выдвинуты теоретические идеи по созданию и реализации инновационных идей в общеобразовательной средней школе. Также освещаются вопросы современных технологий и их применения в образовательном процессе.

#### SUMMARY

This article highlights the issues of the effective use of innovative approaches in the process of implementing educational reforms in the country, put forward theoretical ideas for the creation and implementation of innovative ideas in a comprehensive secondary school. It also highlights the issues of modern technologies and their application in the educational process.



Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық  
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

**«МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ  
БИЛИМЛЕНДИРИЎ»**

**№ 1/1**

**Нөкис — 2023**

Басып шығыўға жуўапкер:

*А. Тилегенов*

Баспаға таярлаған:

*А. Тилегенов, Р. Утепов*

Компьютерде таярлаған:

*П. Реймбаев*

**Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54**

**Тел.: 224-23-00**

**e-mail: [uzniipnkkf@mail.uz](mailto:uzniipnkkf@mail.uz),**

**[mugallim-pednauk@mail.uz](mailto:mugallim-pednauk@mail.uz)**

**[www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz](http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz)**

*Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыұматларға автор жуўапкер.*

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 18.01.2023. Форматы 70x100<sup>1</sup>/<sub>8</sub>

«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 52,5 . Нашр. т. Нусқасы \_\_\_\_\_ Буйыртпа №